



## NATIONAL INTERESTS IN THE CONTEXT OF TRANSNATIONAL MIGRATION: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND THE USA

*Diyora Norkuziyeva*

*Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications*

*2nd-year Master's student, International Relations program*

[norkuziyevadiyora@gmail.com](mailto:norkuziyevadiyora@gmail.com)

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** migration, transnational, GDP, national interests, security, Uzbekistan, USA, politics, economy, social.

**Received:** 28.03.26

**Accepted:** 29.03.26

**Published:** 30.03.26

**Abstract:** This study analyzes the issue of harmonizing transnational migration processes with national interests using the example of Uzbekistan and the United States. In recent decades, changes in the global labor market, international security system, and demographic shifts have made migration policy a strategic priority for states. In the experience of Uzbekistan, protecting the rights of citizens working abroad, regulating migration flows, and encouraging the return of labor resources are considered an important part of national interests. At the same time, the US model is based on the principles of attracting highly qualified migrants, supporting economic growth, and strengthening national security. The study compares and studies the migration policies, institutional approaches, positions in the international labor market, and economic, social, and security aspects of migration of both countries.

## TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA MILLIY MANFAATLAR: O'ZBEKISTON VA AQSH TAJRIBASI

*Diyora Norkuziyeva*

*O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti*

*Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

[norkuziyevadiyora@gmail.com](mailto:norkuziyevadiyora@gmail.com)

*Toshkent, O'zbekiston*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit soʻzlar:** migratsiya, transmilliy, YaIM, milliy manfaatlar, xavfsizlik, Oʻzbekiston, AQSH, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy.

**Annotatsiy:** Mazkur tadqiqot transmilliy migratsiya jarayonlarining milliy manfaatlar bilan uygʻunlashuvi masalasini Oʻzbekiston va AQSh misolida tahlil qiladi. Soʻnggi oʻn yilliklarda global mehnat bozori, xalqaro xavfsizlik tizimidagi oʻzgarishlar hamda demografik siljishlar migratsiya siyosatini davlatlar uchun strategik ustuvor yoʻnalishga aylantirdi. Oʻzbekiston tajribasida chet elda mehnat qilayotgan fuqarolar huquqlarini himoya qilish, migratsiya oqimlarini tartibga solish va mehnat resurslarining qaytib kelishini ragʻbatlantirish milliy manfaatlarining muhim qismi sifatida koʻriladi. Shu bilan birga, AQSh modeli yuqori malakali migrantlarni jalb etish, iqtisodiy oʻsishni qoʻllab quvvatlash hamda milliy xavfsizlikni mustahkamlash tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotda har ikki davlatning migratsiya siyosati, institutsional yondashuvlari, xalqaro mehnat bozorida pozitsiyasi hamda migratsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va xavfsizlik jihatlari solishtirilib oʻrganiladi.

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИНТЕРЕСЫ В УСЛОВИЯХ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ МИГРАЦИИ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И США**

*Диёра Норкузиева*

*Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана*

*Магистрант 2 курса, направление «Международные отношения»*

[norkuziyevadiyora@gmail.com](mailto:norkuziyevadiyora@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** миграция, транснациональная, ВВП, национальные интересы, безопасность, Узбекистан, США, политика, экономика, социальная сфера.

**Аннотация:** В данном исследовании анализируется вопрос согласования транснациональных миграционных процессов с национальными интересами на примерах Узбекистана и США. В последние десятилетия изменения на мировом рынке труда, в международной системе безопасности и демографические сдвиги сделали миграционную политику стратегическим приоритетом для государств. В опыте Узбекистана защита

прав граждан, работающих за рубежом, регулирование миграционных потоков и поощрение возвращения трудовых ресурсов рассматриваются как важная часть национальных интересов. В то же время модель США основана на принципах привлечения высококвалифицированных мигрантов, поддержки экономического роста и укрепления национальной безопасности. В исследовании сравниваются и изучаются миграционная политика, институциональные подходы, позиции на международном рынке труда, а также экономические, социальные и аспекты безопасности миграции обеих стран.

---

**Kirish.** Zamonaviy globalizatsiya sharoitida transmilliy migratsiya hajmi keskin oshib bormoqda, bu esa ko‘plab davlatlar uchun ichki va tashqi siyosatda yangi vaziyatlar yaratmoqda. Transmilliy migratsiya bu fuqarolar yoki rezidentlar yashash huquqi bo‘lgan davlat chegaralaridan tashqariga chiqish jarayonidir, va u davlatlarning ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga hamda siyosiy manfaatlariga bevosita ta’sir qiladi. Milliy manfaatlar, odatda davlat strategiyasi asosiy maqsadlarini belgilaydigan omil sifatida, migratsiya siyosatini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, iqtisodiy manfaatlariga mehnat bozorini to‘ldirish va pul jo‘natmalari kirimi kiradi, xavfsizlik manfaatiga noqonuniy migratsiyani nazorat qilish va hududiy barqarorlik kiradi. O‘zbekiston va AQSh transmilliy migratsiya sharoitida ikki xil rol o‘ynaydi. O‘zbekiston asosan mehnat migrantlarining jo‘natiluvchi mamlakatidir, uning aholisi katta qismi chet elda ishlaydi va iqtisodiy jihatdan ularga bog‘liq. AQSh esa dunyodagi yirik immigratsiyani qabul qiluvchi davlat bo‘lib, har yili millionlab odamni mamlakatga jalb qiladi. Shu sababdan, ikki davlatning migratsiya siyosati ham farqli ustuvorliklarga ega, biroq har biri o‘z milliy manfaatlari doirasida migratsiya jarayonini tartibga solishga intiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Transmilliy migratsiyaning milliy manfaatlar kontekstida tahlili global miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro va mahalliy olimlar bu jarayonning ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik jihatlarini turlicha yoritgan. Rus olimlari orasida S.Yu.Belokrylova transmilliy migratsiyani mamlakatlarning siyosiy va ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib, uning milliy xavfsizlikka ta’sirini alohida ta’kidlaydi. Belokrylova transmilliy migratsiya strategiyasining ishlab chiqilishi davlatning siyosiy institutlari uchun afzalliklar yaratishini qayd etadi[1]. Bundan tashqari, A.V. Karpenko

migratsiyaning mehnat bozori va milliy iqtisodiyotga ta'siri masalasini o'rganadi. Unga ko'ra, davlat migratsiya oqimlarini tartibga solish orqali innovatsiyalarni rag'batlantirishi, raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin[2]. Xalqaro adabiyotda ingliz tilida yozilgan asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Stephen Castles va Mark J. Millerning klassik ishlari transmilliy migratsiyani global kontekstda chet ellarda mehnat qiluvchi migrantlarning ikkiyuzlamali iqtisodiy roli orqali tahlil qiladi. Ularning fikricha, transmilliy migratsiya nafaqat jo'natuvchi, balki qabul qiluvchi davlatlar uchun ham strategik imkoniyatlar yaratadi[3]. Ingliz tilidagi yana bir muhim manbada Douglas S. Massey milliy manfaatlar va migratsiya siyosati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tushuntiradi. Massey migratsiya oqimlarini boshqarish siyosati demografik o'zgarishlar, mehnat bozorida talab va milliy xavfsizlik strategiyalari bilan bevosita bog'liq ekanini qayd etadi[4]. Turkiy olimlardan D. İçduygu transmilliy migratsiyaning milliy manfaatlar bilan uyg'unligini tadqiq qiladi. İçduygu transmilliy migrantlarning ijtimoiy integratsiyasi, ularning iqtisodiy salohiyati va davlatlararo hamkorlikka ta'sirini tahlil etgan holda, migratsiya siyosatining ilg'or amaliyotlarini ajratib ko'rsatadi[5]. O'zbekiston kontekstida S.N. Toshpulatova va D.R. Ergashevlar milliy strategiyalarni shakllantirishda migratsiyaning o'ziga xos jihatlarni atroflicha o'rganadilar. Ularning tadqiqotlarida O'zbekistonning tranzit migratsiya, mehnat migratsiyasi va milliy manfaatlarni barqaror qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Toshpulatova va Ergashev migratsiya siyosatini davlat strategiyasi bilan bog'lashning zarurligini qayd etadi[6]. Shuningdek, R.A. Hasanov O'zbekistonning migratsiya siyosatida mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini o'rganib, ularni milliy iqtisodiyotning rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish yo'nalishlarini taklif etadi[7].

**Muhokama.** So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tashqi mehnat migratsiyasini milliy manfaatlarda ko'rib chiqishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Prezident Shavkat Mirziyoyev majlislarida xorijdagi vatandoshlarimizni qonuniy va yuqori daromadli ish joylari bilan ta'minlash muhimligi ta'kidlandi[4]. Shuningdek, elchixonalar va konsulliklarimiz fuqarolarimizning huquqlarini himoya qilish va muammolarini yerdan hal qilishga mas'ul ekani qayd etilgan[5]. Bu yo'nalishdagi chora tadbirlar, xususan 2025-yilgi qarorda Mehnat migratsiyasini tartibga solish Migratsiya agentligiga milliy manfaatlar nuqtai nazaridan amalga oshirilishi belgilangani masalan, "Agentlik respublika milliy manfaatlarini inobatga olgan holda O'zbekiston fuqarolarining mehnat migratsiyasi jarayonini tartibga soladi" deb ko'rsatilgani bilan yaqqol namoyon bo'ladi[6]. Iqtisodiy ma'noda O'zbekiston tashqi migratsiyasi pul jo'natmalari orqali katta foyda keltiradi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yanvar oktyabrda O'zbekistonga jami 12,6 mlrd dollar pul jo'natilgan, shundan 78% miqdori Rossiyadan o'tkazilgan[7]. Bu ushbu mamlakat Rossiya

fuqarolarimizning asosiy mehnat migratsiyasi yoʻnalishi ekanini koʻrsatadi. Berlin Economics hisobotida koʻrsatilishicha, migratsiya joʻnatmalari 2017-2019-yillarda YAIMning 12-15 foizini tashkil etib, ularning Oʻzbekiston iqtisodiyotiga katta taʼsirini namoyon etadi[1]. Shu sababli Oʻzbekiston hukumati migratsiya oqimlarini tegishli meʼyorlar asosida tartibga solish, xorijga ishga yuborish tartibini takomillashtirish va mehnat migrantlarining huquqlarini taʼminlash choralari kuchaytiradi.

Amerika Qoʻshma Shtatlari transmilliy migratsiya dunyodagi eng yuqori koʻrsatkichga ega mamlakatlardan biridir. 2022-yilda davlatda tahminan 46,2 mln immigrant istiqomat qilgani maʼlum boʻlib, bu jami aholining 13,9%ini tashkil etadi[2]. AQSh immigratsiya siyosati milliy manfaatlarni keng koʻlamda eʼtiborga oladi. Iqtisodiyotda ishsizlik muammolarini yengish, aholi kamayishini toʻldirish va yangi mutaxassislarni jalb etish, shuningdek gumanitar masalalarni hal qilish kabi maqsadlar asosiy oʻrinni egallaydi. Kerwin va Uorren AQShdagi immigratsiya siyosati muhokamasida milliy manfaat tushunchasi ustuvor ekanini qayd etgan. Amerikaliklar immigratsiya tizimini “milliy manfaatlarga xizmat qiluvchi tartibli tizim” sifatida koʻrishni istashadi[3]. Shu misol qilib aytish mumkinki, yuqori malakali mutaxassislar uchun milliy manfaat asosida immigratsiyani ragʻbatlantiruvchi viza yoʻnalishlari mavjud. Shu bilan birga, hujjatsiz immigratsiya masalasi ham xavfsizlik va qonun ustuvorligi manfaatlari nuqtai nazaridan muhokama qilinib, tartib intizomni kuchaytirish choralariga urgʻu beriladi. Umuman olganda, AQSh tajribasida immigratsiya siyosati iqtisodiy maqsadlar bilan bir qatorda milliy xavfsizlik va demokratiya qadriyatlarini qoʻllab quvvatlashga qaratilgan.

**Natija.** Oʻzbekiston va AQSh tajribalarini solishtirgan holda aytish mumkinki, har ikki davlat migratsiyani milliy manfaatlar bilan uygʻunlashtirishga intiladi. Farqi shundaki, Oʻzbekiston migratsiyani koʻproq tashqi mehnat bozori orqali tartibga solishga majbur boʻlgan “joʻnatuvchi davlat” sifatida siyosat ishlab chiqsa, AQSh – global darajadagi “qabul qiluvchi davlat” sifatida mehnat bozorini toʻldirish, innovatsion salohiyatni mustahkamlash va demografik barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqqan. Shu bilan birga, ikki davlat tajribasini birlashtiruvchi jihat – migratsiyaning iqtisodiy resurs sifatidagi ahamiyatidir. Oʻzbekiston uchun bu asosan pul joʻnatmalari va qaytgan migrantlarning koʻnikmalari orqali namoyon boʻlsa, AQShda esa migrantlar iqtisodiyotning turli segmentlarida mehnat resurslarini toʻldirishi, ilmiy texnologik rivojga hissa qoʻshishi orqali koʻzga tashlanadi. Natijada, transmilliy migratsiyani milliy manfaatlarga moslashtirishda har ikki davlatning yondashuvi oʻziga xos boʻlsada, ular orasida umumiy qoidalar mavjud: migrantlar huquqlarini himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, migratsiya oqimlarining barqarorligini taʼminlash va xavfsizlik

masalalariga kompleks yondashuv. Ushbu jihatlar O'zbekistonning migratsiya siyosatini takomillashtirishda AQSh tajribasidan ma'lum darajada foydalanish imkonini beradi.

O'zbekiston migratsiya siyosati milliy manfaatlarni iqtisodiy rivojlanish va fuqarolarning farovonligini oshirish bilan bog'liq deb hisoblaydi: mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan pul jo'natmalari YAIMning 12–15 foizini tashkil etadi[1]. Shu bois Migratsiya agentligi mehnat migratsiyasini respublika milliy manfaatlari nuqtai nazaridan tartibga solishga qaratilgan faoliyat yuritadi[6]. AQSh immigratsiya siyosati milliy manfaatlarni asosan iqtisodiy o'sish va xavfsizlik bilan bog'laydi: aholining katta qismi immigratsiya tizimining qonuniy va tartibli bo'lishini xohlaydi[3]. 2022 yildagi hisob-kitoblarga ko'ra, AQShda 46,2 mln immigrant mavjud edi[2]. Bu esa immigratsiyaning milliy miqyosdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Har ikki mamlakat migratsiya oqimlarini milliy manfaatlariga mos boshqarishga intiladi, biroq ustuvor yo'nalishlar farq qiladi. O'zbekistonda bu iqtisodiy foyda va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, AQShda immigratsiya iqtisodiy o'sish, demografik o'zgarish va milliy xavfsizlik kontekstida ko'rib chiqiladi[3].

**Xulosa.** Transmilliy migratsiya zamonaviy global jarayonlarning eng muhim tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, u davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozori barqarorligi, demografik dinamikasi va milliy xavfsizlik strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston va AQSh misolida olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki davlat migratsiya jarayonlarini milliy manfaatlarga moslashtirishda o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lsa-da, umumiy strategik tamoyillar mavjud. O'zbekiston uchun transmilliy migratsiyaning asosiy yo'nalishi xorijdagi mehnat migrantlarini huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab quvvatlash bilan bog'liq. Fuqarolarning xorijda qonuniy ishlashi, mehnat sharoitlarining kafolatlanishi va muammolarining diplomatik kanallar orqali tezkor hal etilishi milliy manfaatlar tizimida birinchi o'ringa chiqdi. Mehnat migratsiyasi natijasida mamlakatga kirib kelayotgan yirik pul jo'natmalari iqtisodiyotning valyuta barqarorligini ta'minlab, ichki iste'mol bozoridagi faollikni saqlab turishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois O'zbekiston migratsiya oqimlarini tartibga solish, agentliklar faoliyatini isloh qilish, xorijda ishlayotgan fuqarolar huquqlarini kafolatlash kabi yo'nalishlarda aniq siyosiy choralarini kuchaytirmoqda.

AQSh tajribasi esa transmilliy migratsiyani ko'lam, sifat va siyosiy funksiyalar nuqtayi nazaridan yanada murakkab tizim sifatida namoyon etadi. Mamlakat yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish orqali iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirishga intiladi, shu bilan birga kam malakali mehnat resurslari orqali mehnat bozoridagi bo'shliqlarni to'ldiradi. AQSh siyosatida migratsiya faqat iqtisodiy vosita emas, balki milliy xavfsizlik, demografik

barqarorlik va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan strategik jarayon sifatida talqin qilinadi. Hujjatsiz migratsiya masalasi ham milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan qat'iy siyosiy tartibotlarni talab qiladi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va AQSh migratsiya siyosatida turli modelga ega bo'lsa ham, ularni birlashtiruvchi umumiy chiziq mavjud migratsiyani milliy manfaatlarni himoya qilish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmga aylantirish. O'zbekiston tajribasida bu jarayon asosan tashqi mehnat bozoriga bog'liq holda rivojlanayotgan bo'lsa, AQShda esa ichki iqtisodiy ehtiyojlar, texnologik taraqqiyot va demografik vaziyat bilan chambarchas bog'liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Белокрылова.С.Ю.Транснациональная миграция и безопасность государства. Moskva.2018, 45-47-b.
- 2.Карпенко.А.В.Миграционная политика и национальные интересы, Sankt-Peterburg, 2019, 112-115-b.
3. Castles.S, Miller M.J.The Age of Migration International Population Movements in the Modern World, 5-nashr, New York, 2014, 1014-b.
4. Massey D.S., International Migration, Prospects and Policies in a Global Market, Oxford University Press, 2009, 78-80-b.
5. İçduygu A., Migration and National Security in Turkey and Beyond, Istanbul, 2017, 59-63-b.
6. Тошпулатова.С.Н, Эргашев Д.Р.Миграция и государственная политика в Узбекистане Toshkent, 2021, 23-28-b.
7. Hasanov R.A. Labour Migration Policy of Uzbekistan Challenges and Prospects, Tashkent, 2022, 50-54-b.